

DIN, DINNING IJTIMOIIY – SIYOSIY ROLI VA DINIY SEKTALAR

*Ilmiy rahbar: **Boymirzayeva Xurshida Sobirovna***

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti

Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi

*Talaba: **Mavlonov Jo'shqinbek***

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti

Pediatrica fakulteti talabasi

Annotatsiya

Dinning mohiyati ishonch va e'tiqod tushunchalariga asoslanadi. Din insoniyatning ruhiy-ma'naviy hayotida muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada din tushunchasi, uning falsafiy va teologik asoslari, shuningdek, diniy sektalarning paydo bo'lishi va ularning jamiyatga ta'siri tahlil etilgan. Maxsus e'tibor diniy sektalarning xatarli faoliyatiga qaratilib, ularning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi roli yoritilgan.

Kalit so'zlar: Din, e'tiqod, din falsafasi, teologiya, sekta, bahoilik, ahmadiylik, iegovochilar, diniy mafkura, ijtimoiy xavf.

Annotation

The essence of religion is based on the concepts of faith and belief. Religion plays a significant role in the spiritual and moral life of humanity. This article analyzes the concept of religion, its philosophical and theological foundations, as well as the emergence of religious sects and their impact on society. Special attention is given to the dangerous activities of sects and their role in socio-political life.

Keywords: Religion, faith, philosophy of religion, theology, sect, Bahá'í Faith, Ahmadiyya, Jehovah's Witnesses, religious ideology, social threat.

Dinning mohiyati turlicha izohlansada, uning asosida ishonch, e'tiqod tuyg'usi yotadi. Darhaqiqat, din ishonmoq tuyg'usidir. Ishonmoq tuyg'usi insoniyatning eng teran va ruhiy-ma'naviy ehtiyojlaridandir.

O'zbek tili lug'at adabiyotlarida "din" – ishonch, ishonmoq, e'tiqod, mulk, hukm, hisob, jazo, tadbir, bo'ysunish, itoat qilish, ibodat, parhez, yo'l tutish, odat qilish, e'tiqod qilish ma'nolarini bildirishi keltirib o'tiladi.

Din falsafasi, "din"ni falsafadan kelib chiqib tadqiq qiladi. Bu tadqiqot asnosida aqliy va betaraf yo'l tutadi. Bu ilm turi, qandaydir bir Yaratuvchi kuch e'tiqodiga falsafiy bir asos topishga harakat qiladi. Shu tufayli ham Din falsafasi sohasida faoliyat ko'rsatuvchilarning maqsadi dinning haq yoki botil ekanligi masalasi bilan mashg'ul bo'lish emas, diniy hukmlarning mantig'i va mohiyatini ochib berishdir. Bu maqsad bilan ular, eng avvalo Xudoning mavjudligi bilan bog'liq dalillarning tanqid yoki

tahlilini qiladi, bu dalillarning qanchalik asosli yoki asossiz ekanligi masalasini ko'rib chiqadi.

Teologiya atamasi (deus - Xudo, logos- ta'limot) qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan va dastlab hych qanday falsafiy yukka ega bo'lmagan. Teologiya «ilohiy haqiqat» bilan, falsafa esa yaxlit fan sifatida – tabiiy olam bilan shug'ullanadi. Falsafa o'zini bilishning hamma narsani, shu jumladan dinni ham o'z muhokamasiga, tafakkur ila bilish doirasiga tortishi lozim bo'lgan oliy ko'rinishi sifatida his eta boshladi. Shu bois falsafa ilmning tili va tushunchalaridan Xudoning g'oyalarini hamda «ilohiy haqiqatni» asoslash uchun foydalanuvchi *falsafiy teologiya* g'oyalari tez suratlarda rivojlana boshladi.

Teosofiya qadimgi ildizlarga ega bo'lgan falsafiy harakatdir, ammo bu atama ko'pincha XIX-asrning ikkinchi yarmida yashagan rus-german ruhiy lideri Yelena Blavatskiy tomonidan asos solingan teosofik harakatni anglatadi. Bir qator ruhiy kuchlarni, jumladan telepatiya va xayolparastlikni da'vo qilgan Blavatskiy butun umri davomida ko'p sayohat qilgan. O'zining katta asarlariga ko'ra, unga Tibetga sayohatlari va turli ustalar yoki mahatlatlar bilan suhbatlaridan so'ng koinot sirlari to'g'risida tasavvur berilgan.

Din muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyati orqali namoyon bo'ladi. U olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida yo'li, uni idrok etish usuli, olamda insoniyat paydo bo'lgandan hozirgacha o'tgan davrlarni ilohiy tasavvurda aks etishidir. Din komil insonni tarbiyalashda salmoqli tarbiyalovchi qudratga ega ma'naviy-axloqiy kuch sanaladi.

Din tushunchasi turlicha izohlansa-da, umumiy nuqtayi nazardan qaraganda u ishonmoq tuyg'usidir. Ishonmoq tuyg'usi insoniyatning eng teran ruhiy-ma'naviy ehtiyojlaridan sanaladi. Dunyoda dini, ishonchi bo'lmagan xalq yo'q. Chunki muayyan xalq dinsiz, e'tiqodsiz, biror-bir narsaga ishonchsiz holda yashay olmaydi.

XX asrning ikkinchi yarmida xristianlik, buddaviylik, islom va boshqa dinlar doirasida yuzlab sektalar paydo bo'lgan.

Sekta so'zi, eng umumiy ma'noda, muayyan diniy, siyosiy yoki falsafiy qarashlarga ergashuvchilar guruhini anglatadi. Diniy sekta deganda ma'lum bir dindagi rasmiy aqidalarga zid ravishda ajralib chiqqan yoki mavjud dinlar va konfessiyalarga umuman aloqasi bo'lmagan holda din bayrog'i ostida faoliyat ko'rsatadigan guruhlar tushuniladi. Mutaxassislar ularning sonini taxminan 5000 atrofida, deb baholaydilar.

Liderlar an'anaviy diniy qadriyatlarga qarshi tashviqot ishlarini olib borganlar. Diniy hayot maxsus ishlab chiqilgan tartib qoida va nizomlar orqali amalga oshirilgan. YaDHLarning ba'zilar dunyoning turli burchaklarida o'z bo'linmalariga ega bo'lgan, biznes bilan shug'ullanuvchi yirik xalqaro korporatsiyalarga aylandi.

YaDHLarning aksariyati noqonuniy faoliyat yurituvchi, kriminal tashkilotlardir. (Aum Sinrikyo (Tokio metrosi 10/5000 zah.), Quyosh ehromi (fransiya va KanadA.va

b.).

1. protestantlarning “ikkilamchi” birlashmalari – Iogov shohidlari, Oxirgi kun avliyolari Iso Masih cherkovi (mormonlar), Masih serkovi (Boston harakati);
2. soxta xristian harakatlar – Mun birlashtirish cherkovi, Vissarion oxirgi Ahdi cherkovi, Oq birodarlar;
3. sayentalogik kultlar – Xristian ilmi, Ron Xabbard sayentologiya markazi, Kloneyd, Oq ekologlar harakati;
4. neo- va kvaziorientalistik maktablar va kultlar – “Tirik axloq”(Agni yogA., Krishnani anglash jamiyati, Transsendental meditatsiya, Aum-Sinrekkyo, Saxadja-yoga va b.);
5. Yangi majusiy tashkilot va kultlar – “Runvira” ukrain milliy e’tiqodi cherkovi, Rossiya jarangli kedrlari, Omsk “qadimgi diniy e’tiqodiga qaytish kulti” va boshqalar kiradi.

Bahoiylik – XIX asrda Eronda bobiylik yo‘nalishi zamirida vujudga kelgan diniy yo‘nalish. Sherozlik Sayid Ali Muhammad (1819-1850) 1844 yilda Bob (arabcha "eshik"), ya'ni yangi davrga "eshik" nomini olib, yaqin orada "Xudo elchisi"ning namoyon bo‘lishi, kishilarga yangi davrning asosiy qonunlari va nizomlarini in'om etishini targ‘ib qila boshlagan.

bahoiylik mustaqil din, u biror bir dindan ajralib chiqqan sekta ham, mazhab ham emas deb hisoblaydilar. xudo har ming yilda Yer yuziga yangi payg‘ambar tushiradi;

– jannat va do‘zax, oxirat, shayton va farishtalar inkor qilinadi;

– hozirgi barcha dinlar bir-birini inkor qiladi, shuning uchun ham, ularni birlashtirish va insonlar orasidagi turli farqlarni yo‘qotish lozim. Bahoiylar da'vosiga ko‘ra, bunday birlashtiruvchilik vazifasini bahoiylik bajarishi lozim.

Ahmadiylik (Qodiyoniylik). G‘ayriislomiy mohiyat va diniy-siyosiy mazmunga ega bo‘lgan ahmadiylik oqimi XIX asrning oxirlarida Mirzo G‘ulom Ahmad Qodiyoniy tomonidan tuzilgan. Ahmadiylarga ko‘ra, barcha dinlar qandaydir xaloskorni kutadilar, uning kelishiga umid bilan yashaydilar. Agar kutilayotgan qutqaruvchi, bir odamda mujassam bo‘lsa, dinlararo kelishmovchilik bartaraf etilib, birdamlik, hamjihatlikka erishilgan bo‘lardi.

Ahmadiylarning islom asoslaridan uzoqlashib ketganini ko‘rsatuvchi yana bir holat ularning Makka, Madina qatorida Qodiyonni ham muqaddas shahar ekaniga e'tiqod qilishlaridir. Ular Qodiyondagi masjid oldida minora qurdirib, uni “xaloskor minorasi”, ushbu qishloqdagi qabristonni esa “Jannat bog‘lari” deb atab, bu yerga ko‘milganlar jannatga kiradi, deb hisoblaydilar

"**Satanizm**" deb ataladigan sekta ham keng tarqalgan. Ayrim ma'lumotlarga ko‘ra, o‘ta xavfli bo‘lgan bu sektaning Rossiyada 100 ming, Yer yuzida 5 milliondan ortiq tarafdorlari bor. Ular aholining diniy bilimlari pastligidan foydalanib, oxiratning

yaqinligi bilan qoʻrqitish hamda asosan yoshlar va moddiy ahvoli nochor boʻlganlar ichida ish olib borish yoʻli bilan oʻz tarafdorlarini koʻpaytirishga harakat qilmoqdalar. Bunday sektalarga asos solgan "avliyo"lar oʻz izdoshlarini aldash yoʻli bilan ularning mol-mulklariga egalik qilishga urinmoqdalar.

Ugandadagi "Oxirat kuni" sektasi boshliqlarining faoliyati bunga misol boʻladi. Oxiratni 1999 yilning 31 dekabriga "belgilagan" ushbu sekta rahbarlari oʻz tarafdorlarini mol-mulklarini sotish, tushgan mablagʻni ularga berishga va shu yoʻl bilan gunohlardan forigʻ boʻlishga chaqirgan. Qiyomatning 2001 yil 1 yanvarga "koʻchirilishi" sekta rahbarlariga nisbatan shubha uygʻonishiga olib kelgan. Shundan soʻng rahbarlar Kanungu qishlogʻida 500 dan ortiq oʻz tarafdorlarini aldab bir joyga toʻplab, ustlaridan yopib binoga oʻt qoʻyib yuborishgan. Ommaviy axborot vositalari xabarlariga koʻra, tezkor tadbirlarni oʻtkazgan politsiya yana toʻrt joyda ommaviy qabrlarni topgan. Umuman bu sektaning qurbonlari 1000 ortiq boʻlgani qayd qilingan

"Armageddon" (yaʼni, goʻyoki, oxirzamonda Iso boshchiligidagi iegovochilar va SHayton boshchiligidagi jinlar qoʻshini oʻrtasida boʻlib oʻtadigan jang) tushunchasini kiritdi. SHuningdek, u har yili iegovochilarning xalqaro konferensiyalarini oʻtkazishni 50 ga yaqin kitob muallifi sifatida targʻibot ishlarida radio va grammo–plastinkalardan foydalanishni yoʻlga qoʻydi.

"Iegovo shohidlari" Charlz Teyz Rassel tomonidan asos solingan. Ular xudoning oʻz shaxsiy ismi bor, bu ism "Iegovo"dir va u barcha narsalarning asosi va yaratuvchisi, deb hisoblaydilar. Iegovochilar Iso Xudoning Oʻgʻli boʻlgan deb eʼtiqod qilsa–da, uning Xudo boʻlganini inkor qilishadi. Ularning taʼlimotiga koʻra, Iso Iegovo tomonidan yaratilgan yagona insondir, qolgan barcha insonlar Masih orqali yaratilgan.

Markaziy Osiyoda "Iegovo shohidlari" diniy tashkilotining birinchi jamiyatlari 1950 yillarda paydo boʻlgan va norasmiy ravishda faoliyat koʻrsatib kelgan. Bugungi kunda respublikamizda "Iegovo shohidlari"ning 1 ta tashkiloti rasman roʻyxatga olingan. "Iegovo shohidlari" missionerlikka katta eʼtibor beradi. , hozirgi kunda iegovochi missionerlarning soni 700 mingdan ortiq kishini tashkil etadi Jamoa rahbariyati tomonidan missionerlarni tayyorlash ishlariga katta ahamiyat beriladi. AQSHning Nyu–York shahrida, jamoaning bosh ofisi bilan bir joyda "Galaad" nomli missionerlar tayyorlash markazi mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Karimov I.A. "Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch" asari.
3. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash boʻyicha uslubiy qoʻllanma. Toshkent, 2017.
4. Gʻarb falsafasi tarixidan maʼlumotlar. Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi, T. 2005.
5. Internet manbalari: Wikipedia.org, Britannica.com, jw.org
6. Boboyorov R. "Zamonaviy diniy oqimlar va ular bilan kurashning dolzarb masalalari." Toshkent, 2019.
7. Madrahimov A. "Islom dini va sekta muammolari". Samarqand, 2020.